

ISAJON SULTONNING “QO‘RIQCHI” HIKOYASIDA TABIAT TASVIRI

Davronova Shohsanam G‘aybulloyevna

Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, BuxDU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini professori v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13782354>

Annotatsiya. Maqolada Isajon Sultonning tabiatni tasvirlash borasidagi o‘ziga xosligi va mahorati masalasi to‘g‘risida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, tabiat tasviri, Isajon Sultonning “Qo‘riqchi” hikoyasi, badiiy ifoda, badiiy mahorat.

Isajon Sulton tabiatni kuzatishni va tasvirlashni xush ko‘radigan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu boisdan ham u turli usul va vositalar asosida tabiat go‘zalliklarini birma-bir kuzatib boradi. Shu bilan bir qatorda o‘quvchini ham olamning ajoyibotlari siridan bahramand etishning xilma xil yo‘l va usullarini topa oladi. Uning hikoyalarida tabiat faqat insonlar uchun xizmat qilmaydi va odamlarning nigohi bilan kuzatilmaydi. Balki uning qahramonlari bo‘lgan jonzotlar, tabiat hodisalari ham poetik timsol sifatida ramziy ma’noda bajaruvchi, kuzatuvchi vazifasini o‘taydi. Chunki adibning talqiniga ko‘ra jonli, harakatdagi tabiat uchun ortiqcha, keraksiz bo‘lgan narsaning o‘zi yo‘q. Undagi har bir zarraning bajaradigan o‘z vazifasi mavjud. Aslida u tabiatning muvozanatini ta’min etuvchi ana shu vazifasini ado etish uchun yaraladi. Ana shu vazifani amalga oshirish, uddalash yoki yakuniga yetkazishgacha bo‘lgan har bir jarayon unga muayyan darajadagi yukni yuklaydi va ayni paytda hayotining mazmunini tashkil etadi: zavq uyg‘otadi, tashvish keltiradi va hokazo. Masalan, “O‘rgimchak”, “Qo‘riqchi” kabi hikoyalar bu borada fikrimizga dalil bo‘la oladi. “Keng, hayhotday dalaning qoq o‘trasida qo‘richi qaqqayib turar edi” deb boshlanadi “Qo‘riqchi” hikoyasi. Hikoyaning birinchi qismidagi tasvirlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asar qahramoni – “Ustiga eski-tuski, yirtilib uvadasi chiqqan paxtalik kiydirilgan, boshida quloqchini ham bor. Oyoq-qo‘llariga bir nimalar osib qo‘yilgan, ular quyoshda yiltirab, shabadada qo‘rqituvchi ovozlari chiqaradi. Sal epkida havolanadigan tasmalari uzunasiga osilib yotibdi” deya tasvirlangan dala qo‘riqchisi. Uning asosiy vazifasi – ekinlarni qushlardan himoya qilish. Asarning dastlabki qismi muallif bayoni asosida hikoya qilingan bo‘lsa, ikkinchi qismi qo‘riqchi tilidan bayon etiladi. U yozuvchining badiiy niyatiga ko‘ra jonlantiriladi: fikrlaydigan, gapira oladigan, kuzatib, xulosa chiqaradigan imkoniyatga ega qilib ko‘rsatiladi. U tabiatdagi boshqa barcha jonzotlar singari o‘zi ado etadigan yumushning naqadar qimmatli ekanligini chuqur anglaydi va bu jarayonga astoydil kirishadi: shu boisdan ham “Asl kim ekanimdan bexabarman, biroq juda muhim bir vazifani ado etayotganimni bilaman”, deydi u. Ana shu vazifani bajarish jarayonida unga bir qancha imkoniyatlar berilgan va ayni paytda ma’lum bir to‘siqlar yoki cheklovlar ham qo‘yilgan. Tabiatdagi har qanday jonzotning hayot va harakat jarayonlarida ham aslida muayyan mustahkam asosga ega bo‘lgan mezonlar mavjudki, bular borliq muvozanatining ta’minlanishida muhim o‘rin tutadi. Qo‘riqchi o‘zidagi imkoniyatlardan kelib chiqqan holda yon-atrofni kuzatadi: ekinzorlar egasi va uning o‘g‘li, bug‘doyzorlar, yo‘lchivin, nariroqdagi kichkina daryo va daryo ichidagi qora baliqlar, ahyon-ahyonda yo‘ldan o‘tadigan “Qaylargadir – ufq qirmizi tusda yallig‘lanib, quyosh botadigan tomonlarga ketib borishadigan” karvonlar, tuyalarning pishqirishi, aravalarning g‘iyqillashi, bug‘doyzor tevaragiga ekilgan makkalar, tol shoxiga o‘ralib chiqib borayotgan ilon va undan qo‘rqib, gurr etib havoga ko‘tarilgan qushlar –

barchasi qo‘riqchining nigohidan chetda qolmaydi. Shundan so‘ng Qo‘riqchining kuzatganlari tilga kiradilar, ya‘ni ilon, qushlar, karvondagilar, daryoning baliqlari Qo‘riqchi guvohi bo‘lgan hodisalarni sharhlab beradilar, o‘zlarining kechmishlarini hikoya qiladilar. Qo‘riqchi atrofidagi hodisalarni qiziqsinib ko‘zdan kechiradi, ko‘rgan-kechirganlari natijasida o‘zining anglami darajasida ma‘no izlaydi. Yozuvchi keng dala, ekinzorlar, qarvon, daryo va shu kabilar tasvirini muallif bayoni vositasi bilan ham tasvirlashi mumkin edi, ammo uning ijodiy mahorati o‘laroq bu tabiat tasvirlari asarda o‘zgacha yo‘sinda ifodalandi. Masalan, asarning bir o‘rnidan misol keltiraylik: “Qushlar uchishadi ko‘m-ko‘k samoda. Issiqdan hovur ko‘tariladi. Chirs-chirs deya ovoz chiqaradi quriyotgan o‘t-o‘lan. Goho ustimga mayda chumolilar o‘rmlab chiqishadi. Ular mendan hayiqishmaydi, chunki juda bahaybat bir nimaning ustiga chiqib boryapmiz deb o‘ylashadi, qo‘riqchi ekanimni bilishmaydi”. Yozning issiq pallasidagi ekin maydoni tasvirining Qo‘riqchi tilidan berilishi o‘quvchining tabiat haqidagi tasavvurlarini oydinlashtirishga xizmat qiladi. Natijada kitobxon atrof-muhitni Qo‘riqchi nigohi bilan ko‘radi, tasavvur qiladi hamda bu tasvirlar o‘quvchining yodiga yanada mustahkamroq o‘rnashadi. Aytish mumkinki, o‘quvchi oddiygina bu Qo‘riqchiga oshno tutinadi, uning atrofidagi tabiatga maftun bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, yuqorida qayd etilganidek, Qo‘riqchi o‘ziga berilgan darajadan chetga chiqa olmaydi. Uning nigohi o‘ziga uzoq-yaqin masofanigina kuzata oladi hamda o‘zining ilg‘ay olish imkoniyati yetgan hududlar haqidagina so‘zlab biladi va o‘zining hududi chegarasidagina harakatlana oladi. Karvon va shabada haqida so‘zlar ekan, “ortidan yugurmoqchi bo‘laman, lekin oyog‘im yerga chuqur tiqib qo‘yilgan, joyimdan jilolmayman”, deydi. Demakki, uni saqlab turuvchi eng asosiy cheklov uning yerga chuqur qilib o‘rnatib qo‘yilganligi bilan bog‘liq. Ikkinchi bir jihatga ham Qo‘riqchining o‘zi iqror bo‘ladi: “Tevaragimda sodir bo‘layotgan hodisalarni kuzataman. Goho ilg‘aganlarimdan xabar bergim, ogohlantirgim keladi, ammo sasim o‘zim istagan mahalda chiqa qolmaydi. Ovoz chiqara olishim uchun, ekinlarning hosillarini cho‘qib-cho‘qilab ketadigan yovvoyi qushlarni hurkitishim uchun shabada va quyosh kerak. Yo‘qsa bir sharpa kabi ekinzor o‘rtasida qaqqayib turaman, xolos”. Bu iqrorlar orqali Qo‘riqchinining vazifasi va imkoniyatlari haqidagi tasavvurlarimiz yanada kengayadi. Ya‘ni uning o‘z vazifasini bekam-u ko‘st uddalashi, harakatlanishi, yovvoyi qushlarni ekinzordan quvishi, ovoz chiqarib ularni qo‘rqitishi uchun yordamchi kuchlar kerak. Ko‘rinib turibdiki, tabiat hodisalari, tabiatning bor imkoniyatlari bir-biri bilan sabab-oqibat qonuni asosida bog‘langan, biri ikkinchisiz mavjud bo‘la, harakatlana olmaydi, biri ikkinchisini taqazo qiladi. Aslida tiriklikning azaliy mezonlari, oltin qoidalarining mohiyati ham shunga yaqin, ya‘ni suv bo‘lmasa, hayot bo‘lmaydi, quyosh yerni qizdirmasa, ekinlar unib-o‘smaydi, shamol bo‘lmasa, daraxt gullari changlanmaydi, demakki, meva tugmaydi, inson parvarish qilmas ekan, olam gul-u bo‘lstonga aylanmaydi, hattoki, kichkina chuvalchang ham yerni yumshatib, hosillarning emin-erkin ildiz otishiga ko‘maklashadi va hokazo. Birgina Qo‘riqchining bajarib turgan vazifasi haqida o‘yga tolish asnosida hayotiy haqiqatlarning mazmunini anglash mumkin. Qo‘riqchi o‘ziga berilgan va berilmagan imkoniyatlar doirasidagina harakat qila olar ekan, u istagan hamma vazifani ham zimmasiga olib va hatto istasa ham bajarib bilmaydi. “Bug‘doylar sarg‘ayib, poyalari suv qochgan, bo‘liq-bo‘liq boshloqlari egilib qolgan. Oralaridagi yovvoyi o‘tlarning poyalari ham suvsizlikdan sarg‘ayibdi. To‘p-to‘p urug‘li ba‘zi o‘tlar urug‘larini sochib yuborgan. Ba‘zilarining qattiq po‘stlog‘i ajralib tushib, quruq tuproq ustida yotibdi” degan so‘zlari orqali Qo‘riqchining ekinlarning suvsizlangani haqida egasini ogohlantirish istagi sezilib turadi. Ammo unga bu vazifa yuklanmagan va bunday imkoniyat ham berilmagan. Demak, mulohaza qilib ko‘rish mumkinki, tabiatdagi jonzotlar, narsa-buyumlar,

hodisalarning barchasi o'ziga yuklangan vazifanigina ado eta oladi va buning uchun mas'ul bo'ladi, o'ziga chizilgan chegaradan chiqa olishi va boshqalarning vazifasini zimmasiga olishi yoki o'zgalarning qismatini takrorlashi mumkin ham emas va bu foyda ham keltirmaydi. Qolaversa, yetilgan hosil, suvsizlangan dala bilan bog'liq tabiat tasvirlari Qo'riqchining kuzatuvlari natijasi sifatida yuzaga chiqarilib, poetik topilma sifatida yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Shuningdek, yozuvchining bir muddat egasining e'tiboridan chetda qolgan dalaning holatidan xabardor qilish istagi Qo'riqchi vositasida yozuvchining ham badiiy maqsadini tashkil etadi.

Asar so'ngida ekinzorlar ilon, qushlar, karvon, baliqlar nutqidan so'ng hikoyachi maqomi yana Qo'riqchiga beriladi. Qo'riqchining kuzatuvlari vositasida berilgan kuz tasviri yozuvchining tabiatni tasvirlash borasidagi yana bir yutug'idir: "Ko'kni bir xil tusdagi bulutlar bostirib-egallab keladi. Kuzning ezuvchi yomg'irlari yog'a boshlaydi.

Pilchillagan tuproqlar va dala yo'lida kichkina-kichkina ko'lmakchalar hosil qilib yog'adi kuz yomg'iri. Ko'lmakchalardagi suv jigarrang tusga kirib qoladi. Kesaklarni ivitib-ivitib, loyga aylantirib yog'adi.

Mana shu hodisalarning qatidagi tahdidlar-u ishoratlarning hammasini o'z ko'zim bilan ko'rib turaman, aytay desam tilim yo'q, aytolmayman".

Kuzning darakchisi yomg'irning yog'ishi bilan bog'liq tabiat o'zgarishlari Qo'riqchi tomonidan behad tiniq va chiroyli tasvirlangan bo'lsa-da, uning uchun zavoldan dalolat bermoqda edi. Chunki "marzalar chetiga, tutlar tagiga" uloqtirilgan Qo'riqchi endi bu yilgi vazifasini ado etib bo'lgan edi, endi u kimdir kelib "dast ko'tarib, rizq yetishishi lozim bo'lgan dalalar o'rtasiga yana qaqqaytirib suqib qo'ymaguncha" keyingi bahorni kutib shunday yotishi kerak edi. Shu boisdan ham u egasiga nimalarnidir aytmoqchi bo'ladi, yana allaqanday tahdidlar-u ishoralami anglagani-yu anglata olmaganidan afsuslanadi. Buning uchun u yana shamolni kutadi. Uning ovozini baralla qo'yib olamga jar solishi uchun yagona ko'makchi shamol edi. Bu ishoralar, ramzlar o'quvchini ham mushohadaga chorlaydi. Qolaversa, bunda tabiatning o'tkir qonuniyati yana bir yuz ko'rsatadi, ya'ni tabiat uchun ortiqcha narsaning o'zi yo'q, ayni paytda, tabiat o'zi uchun keraksiz bo'lgan narsadan voz kechishi tabiiyligi ham achchiq haqiqatdir.

Chindan ham "Yozuvchining har bir asari katta-kichikligidan qat'i nazar, o'quvchini chuqur o'yg'a toldiradi, dunyoni anglash, Yer sharida yuz berayotgan voqea-hodisalarga daxldorlik tuyg'ysini his qilish, ona tabiatdagi har bir unsurning qadriga yetish, ularni tushunish, avaylab-asrab yashash sirlarini o'rgatadi. Chunki uning nazarida tabiatning har bir bo'lagi, hodisasi hayot falsafasi bilan to'la bo'lib, ular orqali bu murakkab hayotning qandayligini turli ramziy timsollar vositasida teran anglashga undaydi".

Umuman olganda, Isajon Sulton hikoyalarida insoniyat, tabiat jonzotlar olami, borliqning azaliy mezonlari va qonuniyatlari to'g'risidagi falsafiy, ma'rifiy qarashlar o'ziga xos yo'sinda, noan'anaviy tasvirlar orqali, betakror poetik ifodalar bilan aks ettiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Адабиёт назарияси. Икки жилдлик. Биринчи жилд. – Тошкент: Фан, 1978. – 416 б.
2. Davronova, S. (2022). КОНТРАСТИЧЕСКОЕ ОПИСАНИЕ МЕТОДА В ЛИТЕРАТУРЕ (НА ПРИМЕРЕ РАССКАЗА ИСАДЖАНА СУЛТАНА "ОЛИСДАГИ УРУШНИНГ АКС-САДОСИ") («ЭХО ВОЙНЫ ВДАЛЕКЕ»). *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 9(9).

3. Davronova Shohsanam G‘aybulloevna. (2022). The Issue of Artistic Image of Nature and Method In The Works Of Isajan Sultan (On The Example Of “The Missing Motherland”). *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18. <https://doi.org/10.21070/ijins.v18i.617>
4. Исажон Султон насри бадиияти. – Тошкент: Turon zamin ziyo, 2017. – 384 б.
5. Ezoz Qobilova. (2024). THE PLACE OF FOLK SONGS IN ISAJAN SULTAN’S STORIES. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 4(02), 44–49. <https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-08>
6. Султон И. Кўриқчи. / Султон И. Асарлар. 1-жилд. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2017. – Б. 205-213.